

**O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH  
SOHASIDAGI ME‘YORIY-HUQUQIY HUJJATLAR**

*Turdikulov Shuxrat Xudoykulovich,*

*Toshkent shahar hokimligi*

*Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i,*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

*huzuridagi Davlat boshqaruvi*

*akademiyasi tadqiqotchisi,*

*sotsiologiya fanlari bo‘yicha*

*falsafa doktori (PhD)*

*e-mail: [txshuhrat65@mail.ru](mailto:txshuhrat65@mail.ru)*

**ANNOTATSIYA:**Maqolada O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi huquqiy asoslari tahlil qilingan. Ushbu sohada qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosi samarali amalga oshirilsa, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati oldida turgan vazifalarni hal qilishga qodir bo‘ladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun jamiyat hayotining barcha jabhalarida korrupsiyaga qarshi murossasiz kurash olib borilishi, bu jarayonga barcha davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari va oddiy fuqarolar jalb etilishi zarur. Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlar bilan samarali hamkorlik qilmasdan korrupsiya muammosini hal qilib bo‘lmaydi. Mamlakatimizda korrupsiyani yengish uchun avvalombor qo‘yidagilardan boshlash kerak:

*-aholining huquqiy madaniyatini, jamiyatning ma‘naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirish;*

*-korrupsiyaga murossasiz munosabatta bo‘ladigan jamoatchilik fikrini shakllantirish;*

*-samarali huquqiy va sud-huquq tizimini tashkil etish, prinsiplar va normalarni to‘g‘ri amalga oshirish uchun sud hokimiyatining vakolati va mas‘uliyatini oshirish;*

*-huquqiy demokratik davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini*

*shakllantirish.*

*Kalit soʻzlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish, poraxoʻrlik, gunoh, davlat boshqaruvi, korrupsiyaga qarshi qonunchilik, murosasiz munosabat.*

## **НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ДОКУМЕНТЫ В ОБЛАСТИ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ**

**Турдикулов Шухрат Худойкулович,**

*начальник отдела внутреннего*

*антикоррупционного контроля хокимията*

*города Ташкента, научный сотрудник Академии*

*государственного управления при Президенте*

*Республики Узбекистан, доктор философии (PhD)*

*по социологическим наукам e-mail: [txshuhrat65@mail.ru](mailto:txshuhrat65@mail.ru)*

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье анализируются правовые основы борьбы с коррупцией в новом Узбекистане. Если принятые в этой сфере нормативно-правовые документы будут эффективно реализованы, они смогут решить задачи, стоящие перед государственными органами и гражданским обществом в борьбе с коррупцией. Для решения этой проблемы необходимо вести бескомпромиссную борьбу с коррупцией во всех сферах жизни общества, вовлекать в этот процесс все государственные и общественные организации, а также простых граждан. Проблема коррупции не может быть решена без эффективного сотрудничества неправительственных некоммерческих организаций. Чтобы преодолеть коррупцию в нашей стране, необходимо начать со следующего:

- повышение правовой культуры населения, морально-нравственного потенциала общества;
- формирование общественного мнения, нетерпимого к коррупции;
- создать эффективную судебную-правовую систему, повысить авторитет и ответственность судебной власти за правильную реализацию

принципов и норм;

- построение правового демократического государства и формирование сильного гражданского общества.

**Ключевые слова:** коррупция, противодействие коррупции, взяточничество, грех, государственное управление, антикоррупционное законодательство, непримиримость.

## **REGULATORY DOCUMENTS IN THE FIELD OF COMBATING CORRUPTION IN UZBEKISTAN**

***Turdikulov Shukhrat Khudoykulovich,***

*head of the internal department*

*anti-corruption control of the khokimiyat*

*city of Tashkent, researcher at the Academy*

*public administration under the President*

*Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD)*

*in sociological sciences e-mail: [txshuhrat65@mail.ru](mailto:txshuhrat65@mail.ru)*

**ANNOTATION:** *This article analyzes the legal basis for the fight against corruption in the new Uzbekistan. If the regulatory documents adopted in this area are effectively implemented, they will be able to solve the problems facing government bodies and civil society in the fight against corruption. To solve this problem, it is necessary to wage an uncompromising fight against corruption in all spheres of society, to involve all state and public organizations, as well as ordinary citizens, in this process. The problem of corruption cannot be solved without effective cooperation of non-governmental non-profit organizations. To overcome corruption in our country, we need to start with the following:*

- increasing the legal culture of the population, the moral potential of society;*
- formation of public opinion intolerant of corruption;*
- create an effective judicial and legal system, increase the authority and*

*responsibility of the judiciary for the correct implementation of principles and norms;*

*- building a legal democratic state and the formation of a strong civil society.*

**Key words:** *corruption, anti-corruption, bribery, sin, public administration, anti-corruption legislation, intransigence.*

## **KIRISH.**

Asrlar tajribasidan ma'lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan shaxs, uni suiiste'mol qilishga moyil bo'ladi va u ma'lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo'nalishda yuradi [1].

Xozirgi zamonda O'zbekistonda eng dolzarb muammolardan biri bu korrupsiya. Prezidentimiz 2020 yilning 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ushbu illatga qarshi kurashning ahamiyati haqida alohida ta'kidab, «Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi» - deb aytib o'tgan edi [2].

Korrupsiya illati tufayli har qanday davlat va jamiyatning rivojlanishi sustlashib, boshqaruv tizimiga putur yetadi. Bunda, korrupsiya davlatning saylov jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, qonun ustuvorligini yo'qqa chiqaradi, fuqarolarning davlat organlariga ishonchini yo'qotadi. Aynan shu sababli ham har qanday jamiyat korrupsiyaga qarshi muntazam va izchil kurash olib boradi.

Binobarin, davlat fuqarolik xizmatchilarining poraxo'rlik, mansab mavqeini suiste'mol qilishi – korrupsiyaga qo'l urishi davlatning siyosiy-iqtisodiy, huquqiy tizimiga putur yetkazib, oqibatda amaldagi hokimiyatga nisbatan noroziliklar va ishonchsizlikka sabab bo'ladi. Shu bois ham davlat boshqaruv organlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi mazkur illat bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishdagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilash har qanday jamiyatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risidagi

farmonida mamlakatimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish strategik maqsad etib belgilanib, uni amalga oshirishda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini tubdan isloh qilish, korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish ustuvor vazifa qilib belgilandi.

Sohaga doir huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish, avvalo, mazkur me'yorlar qabul qilingan va amaliyotga joriy qilingandan so'ng, samara berishi mumkinligi haqida oldindan atroflicha o'ylab ko'rishimizni talab qildi.

Qonunning amaliyotdagi samaradorligi nima? Bu –huquqiy me'yor va undan ko'zlangan maqsad, qonun amaliyotga joriy qilingandan so'ng, erishilgan amaliy natijalar bilan mutanosib kelishidir. Barcha holatlarda ham natijaning samaradorlik darajasi yuqori bo'lishida tashqi ta'sirlarni unutmasalik muhimdir. Qonunga nisbatan olganimizda, bu – huquqiy va ijtimoiy omillar bo'lishi mumkin.

### **ASOSIY QISM.**

Korrupsiya ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida, uning O'zbekistonda tarqalish ko'lami, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy tartibga solinishi, sabablari va unga qarshi kurashish choralari haqida ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan, ilmiy ishlar yozilgan. Korrupsiya muammolari bo'yicha yuristlar, iqtisodchilar, siyosatshunoslar, sotsiologlar tomonidan ko'plab monografiyalar, maqolalar yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan, ilmiy konferensiyalar o'tkazilgan. Shunga qaramay, korrupsiya muammosi yuzasidan tadqiqotlar olib borish o'ta dolzarbligicha qolmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

1. Jinoyat kodeksi (1994), Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks (1994);
2. O'zbekiston Respublikasining "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasiga qo'shilishi to'g'risida"gi O'RQ-158-sonli qonuni;
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli qonuni;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid farmon va qarorlari (PF-5729-sonli, PQ-4761- sonli, PF-6013-sonli, PF-6247- sonli, PF-6257-sonli, PF-154-sonli, PF-60-sonli, PF-200-son, PQ-5177-sonli, PQ-34-sonli, PQ-81- sonli, PQ-240-sonli, PQ-5263- sonli);

5. “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni;          6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni.

So‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonunchilik bazasini shakllantirish va davlat tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning joriy qilinishida samaradorlikni oshirish bo‘yicha jiddiy ishlar amalga oshirildi.

Qonunning samaradorligini oshiruvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- Qonun va boshqa huquqiy me‘yorlarning sifat darajasi;
- Huquqni qo‘llash faoliyatining sifat darajasi.

Qonunning samaradorligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillarga quyidagilar kiradi:

- jamiyatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi;
- jamiyatda insonlarning huquqiy madaniyat darajasi;
- huquqiy me‘yor talablarining jamiyat rivojlanish darajasiga mosligi;

Albatta iqtisodiy rivojlanish va insonlarning huquqiy madaniyat darajasi hamda eskirib qolgan huquqiy me‘yorlar mamlakatda korrupsiyaning rivojlanish yoki pasayish darajasiga o‘zining bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini qabul qilinishida yuqorida aytilgan me‘yorlarga amal qilinganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu asosda, sohada qonunchilik va institutsional asoslarni takomillashtirish, jamiyatda davlat organlarining ochiqligini ta’minlash, axborotdan erkin foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bir qator



muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi, «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi, «Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida»gi, «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi, «Elektron hukumat to'g'risida»gi, «Davlat xaridlari to'g'risida»gi, «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi, «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi, «Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. E'tiborli jihat, O'zbekiston mintaqamizda birinchilardan bo'lib, 2004 yildayoq «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi [3] qonunni qabul qildi. Ushbu qonunni qabul qilishdan asosiy maqsad, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Korrupsiya va uning salbiy oqibatida kelib chiqishi mumkin bo'lgan sabablar hamda omillarning oldini olish maqsadida, iqtisodiyotni erkinlashtirish, mehnat jamoalarida ishchanlik va oshkoralik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar tashkil etish, turli ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, bunda davlat organlari tomonidan litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmini tubdan takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalarini tasdiqlashga oid tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi va chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Biroq, ochig'ini tan olish kerak, mamlakatimizda 2017 yilga qadar korrupsiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtiradigan, bu kurashishning qonuniyligi va shaffofligini amalda ta'minlaydigan maxsus qonun qabul qilinmagan edi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va bu sohada samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish masalalari davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tantanali marosimdagi ma'ruzasida «Jamiyat rivojiga g'ov bo'layotgan yana bir illat – bu korrupsiya

balosidir. Bunday xatarga qarshi kurashish maqsadida yaqinda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunni tezroq amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko‘rishimiz lozim” [4], deya alohida qayd etib o‘tgani bejiz emas. Oradan ko‘p o‘tmay, Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 24 noyabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 13 dekabrda ma’qullangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 2017 yil 3 yanvar kuni qabul qilinib, 4 yanvardan to‘liq kuchga kirdi. 6 bob va 34 moddadan iborat ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks va maqsadli chora-tadbirlar belgilandi.

Ushbu qonun, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to‘liq qonuniy tartibga solish, davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, shuningdek korrupsiyani barcha sohalarda to‘liq bartaraf etishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan.

Shuningdek, qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari hamda bu boradagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari, vakolatli organlar tizimi, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning mazkur yo‘nalishdagi ishtiroki va xalqaro hamkorlik mezonlari belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari, nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu sohada tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Milliy kengash va hududiy kengashlar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etadi [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 27 maydagi PF-5729-sonli farmoniga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlarining



tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tashkil etildi va komissiyaning asosiy vazifalari qilib:

-joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o'rganish;

-joylarda korrupsiya ko'rinishlari namoyon bo'lishiga olib keladigan tizimli muammolar va korrupsiyaning holati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo'yicha qo'mitalariga ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritgan holda muntazam ravishda axborot berib borish belgilandi [6].

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va gumanitar sohalardagi dolzarb masalalarni hal qilishda davlat tashkilotlari bilan jamoat tashkilotlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va dasturlar samaradorligini oshirish talab etiladi. Vaholanki, davlat organlari bilan bir qatorda Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda fuqarolarning shaxsan o'zlari ham ishtirok etishlari qonun yo'li bilan mustahkamlandi. Bunda ular, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tashkil etildi. Agentlikning asosiy maqsad va vazifalari: mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta'minlash; korrupsiyaga oid xavf-xatarlar yuqori bo'lgan sohalarni aniqlash; korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni amalga oshirish; fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish orqali jamiyatda korrupsiyaning

barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish; davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimi joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash; korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish; korrupsiyaning holati, tendensiyalari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi choralar ko‘rishning samaradorligi yuzasidan sotsiologik, ilmiy va boshqa tadqiqotlarni tashkil etish; korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash va boshqalardan iboratdir [7].

Shuningdek, 2021 yil 6 iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5177-son qarori bilan 2021 yil 1 oktyabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (“komplayens-nazorat”) tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ular korrupsiya xavf-xatarlari va manfaatlar to‘qnashuvini o‘z vaqtida aniqlash hamda ularga chek qo‘yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish kabi qator profilaktik choralarni amalga oshiradi.

Mamlakatimizda kuzatilgan korrupsiyaga oid jinoyatlar, jinoyat kodeksi moddalari asosida tahlil qilinganda, quyidagi moddalarning ko‘p buzilishi holatlarini ko‘zatilgan. Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish 205-modda, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish 206-modda, mansab soxtakorligi 209-modda, hokimiyat harakatsizligi 208-modda, pora olish 210-modda, pora berish 211-modda, pora olish-berishda vositachilik qilish 212-modda, davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi 214-moddalar shular jumlasidandir.

Olimlarning ilmiy xulosalari va kuzatuvlariga ko‘ra, korrupsiya – jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi, iqtisodiyotning bir tekisda rivojlanishiga to‘sqinlik qilishdan tashqari, aholining hokimiyatga, adolatga bo‘lgan ishonchini so‘ndiradi, fuqarolar orasida befarqlik, loqaydlik kuchayishiga olib keladi.

Respublikamizda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaga

qarshi qonunchilikning mavjudligi, korrupsiyaga qarshi kurashda vaksina vazifasini o'tamaydi. Jamiyat tomonidan ijtimoiy me'yor sifatida qabul qilingan, qononimizga singib ketgan illatga qarshi kurashda qonun hujjatlariga ma'lum o'zgartish va qo'shimchalar kiritish orqali haqiqiy muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Qonunlar faqat ular amalga oshirilgandagina muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Korrupsiyaning keng tarqalishining asosiy sabablaridan biri, ma'muriy boshqaruvdagi kamchiliklar yoki qonunlarning nomukammalligida emas, balki jamiyatning o'zida, muammolarini qonuniy hal qilish mumkin bo'lgan hollarda ham masalani yechish uchun pora taklif qilish orqali hal etuvchi odamlardadir.

### **XULOSALAR.**

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa sifatida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasida jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning siyosiy va huquqiy asoslarini takomillashtirish ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim poydevori bo'lib hizmat qiladi. Ushbu maqsadda:

1. Korrupsiyaga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish, bunda rag'batlantirish va xalq bilan muloqot qilish, shuningdek, mavjud salbiy va xavfli ijtimoiy munosabatlarni huquqbuzarlik sifatida e'tirof etish.

2. Mehnat qonunchiligidagi va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi mavjud muammodan kelib chiqib xorijiy tajriba asosida qonunlarni qabul qilish.

3. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

4. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlik prinsipini ta'minlash.

6. Davlat xizmatchilari uchun mehnatga adolatli haq to'lash va boshqa ijtimoiy manfaatdorlik tizimini joriy etish.

Demak, ushbu illatni bartarf qilishda yuqorida keltirilgan omillarga e'tibor qaratsak, hamda joriy qila olsak ushbu muammoni bartarf qilish va kamaytirish imkoniyati vujudga keladi. Bunda davlat organlari bilan birga fuqarolar ham ongli ravishda harakat qilishlari lozim bo'ladi.

**Iqtibolar /Сноски/References:**

1. А. А. Кротов. Монтезкье // Новая философская энциклопедия : в 4 т. - Москва. 2010.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. – Toshkent. 2020.
3. O'zbekiston Respublikasining “Jinoiy faoliyatdan olingan daromad-larni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonuni. – Toshkent. 2004 y.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. – Toshkent. 2017. – 48 bet.
5. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. – Toshkent. 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-sonli farmoni. – Toshkent. 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6013-sonli farmoni. – Toshkent. 2020.
8. “Korrupsiya – jamiyat taraqqiyotiga taxdid” risola / Sh. Turdiqulov. – Toshkent 2019. - B. 45.
9. Turdikulov Sh.X «Korrupsiyaga qarshi kurash jamiyat muammosi» Monografiya. –Toshkent: «Bilim va intellektual salohiyat», 2022. –B.16.
10. Matibayev T.B. O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati: «Korrupsiya –ijtimoiy xavf». Darslik. – Toshkent. 2019. – B. 19.